

O'ZINI O'ZI SUYAGAN OLIMA

Inobat qo'liga oliy ma'lumotli o'qituvchi diplomini tutib, olam-olam taassurotlar bilan ona qishlog'iga kelganini esladi. Oddiy, kamsuqum va kamtarin ota-onasining boshlari ko'kka yetgudek sevinishdi.

—El oldida yuzimizni yorug' qilding, rahmat, ona qizim. Buyog'iga Allob omadingni, baxtingni bersin. Shu yer farzandisan, zamin mebrini unutma.

Kolxozlashtirish davrida xalq dardiga sherik bo'lgan, uzoq yillar qishloq fuqarolar yig'iniga raislik qilgan otasi Anvar Shirinov (rahmatli) qizi Inobatga ana shunday nasihat qildi.

Uning hu so'zlari qizining butun hayoti davomida dastak bo'lishini, yangi-yangi pog'onalarga ko'tarilishini, fan olamida o'z izini qoldirishini bilganmidi.

Mana, biologiya fanlari nomzodi, bademay professorlik darajasini egallash arafasida turgan Inobat Shirinovaning yoshi ellikdan oshdियamki, dadajonining "Olim bo'lmasang ham, odam bo'lg'in", degan nasihatini unutmaydi. Yuzlarida quyosh nuri halqib turadigan 101 yoshga to'lgan volidai muhtaramasi esa bar tong uni xuddi yosh qizaloqni avaylapandek, ishga kuzatib qo'yadi.

—Yo'lda ehtiyot bo'l, mashinalardan odam emas, odamlardan mashina haydovchilar qo'rqadi, hozir. Mana bu pulni ol, haraka keltiradi...

Inobat kekxa onasining xavotirli gap-so'zlariga ko'nikib ketgan. Bozorgul momo doimo bitta gapni ko'p takrorlaydi: Ayol zotiga o'xsbab yashasang-chi? Sen ham uy-joy, tilla-pilla, yaltiroq kiyim-kechakka qiziqsang-chi? Shuncha yil qog'oz titganing hilan ichidan nima chiqadi?

Qachongacha yo'l mashinalarga osilib yurasan, bitta ulov qilib olsang-chi?

Inobat Sirdaryo tumanidagi 15-o'rta maktabni tamomlagach, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutiga o'qishga kirdi. Oliy ma'lumotli muallima 1979 yildan qishloq o'quvchilariga biologiya fanidan saboq heraboshladi... 1985 yilgacha ish jarayonida shunga amin bo'ldiki, unda hali ilm egallashga ishtiyoq kuchli. Shu maqsadda 1985-1989 yillari UzFA Biologiya instituti aspiranturasida o'qidi, fan sirklarini o'rgandi. Intilish va izlanishlari samarasi 1993-yili «Organizmda embrion rivojlanishi davrida bo'ladigan ba'zi kamchiliklarni o'rganish usullari» mavzuida nomzodlik ishini yoqladi.

Olima Inobat Shirinova 1985-yildan beri GulDUning biologiya fakul'tetida yoshlarga saboq berish bilan birga ilmiy izlanishlarini davom ettirmoqda. Uning bu nufuzli katta dargohda o'ziga xos o'rnini, obro'-e'tibori bor. Halol, vijdonan ishlaydigan tinib-tinchimas olim talabalardan ko'p o'qishni talab etadi.

–Hozir “Organizmida modda va energiya almashinuvini kislorod tanqisligida va toksik moddalar ta'sirida tabiiy birikmalar yordamida oshirish” mavzusida doktorlik ishini nihoyasiga yetkazdim. Shu mavzudagi maqolalarimni Yaponiya va Amerika davlatlaridagi nashrlarga ingliz tiliga o'girib yubordim. Nasib qilsa, natija yomon bo'lmaydi.

Olimaning 70 dan ziyod ilmiy risolalari chop etilgan. Xususan, Vengriyaning «Radditsion ximiya» jurnalida, Rossiyaning «Radio biologiya», «Qozog'iston xabarlar» jurnalida biologiyaga oid qiziqarli, yangi mavzuli maqolalari bosilgan. Uning 2 ta monografik asari, o'ndan ortiq uslubiy qo'llanmalari mavjud.

– Hozirgi talabalarga har taraflama havas qilsa arziydi, - deydi olim suhbatlashganimizda. – Ular internet olamini yaxshi bilishadi, zamonaviy texnikalardan to'laqonli foydalanishadi. Ularning ertaknamo hayoti bizlarning yoshligimizda misoli shirin xayoldek bo'lgan. O'zim qiyinchilik bilan o'qib-o'rganganim, o'zini o'zim suyak “odam” qilganim uchunmi juda talabchanman. Talabalarga o'z ustida qat'iy ishlashni, ko'proq o'qishni, hozirdanoq ilmiy izlanishni boshlasa lozimligini ko'p ta'kidlayman. Vaqt bir zumda uchar qushday o'tadi ketadi. Uning har lahzasidan oqilona foydalanmoq lozim. Tarixning zarvaraqlariga ismi shariflari yozilgan buyuk bobokalonlar, avlodimiz bilan faxrlanib, shundan ruhlanib, ilhomlanib ilm egallashimiz, turmush tarzimizni yangicha mezonlar bilan boyitmoq lozim.

Darvoqe, Inobat Shirinova oddiy qishloq odamlari orasida ulg'aygan, ilm ortidan quvib, fanga ishtiyoqi bois o'zini o'zi suyak, mavqeinini, o'rnini yarata olgan fozila, oqila olimalardan.

Biz uning zahmatli faoliyatiga omad tilab, ezgu tilaklari ro'yobga oshishiga umid qilamiz.

Noriniso QOSIMOVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi
(2010 yil 10 yanvar “Sirdaryo haqiqati”)